

## “QISASI RABG‘UZIY”DA EPIK JANRLAR TIZIMI VA FOLKLOR-POETIK TAFAKKURNING TRANSFORMATSIYASI

Mamatova Sadbara Qo‘ldoshevna,

Renessans ta‘lim universiteti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

E-mail: [sadbara1987@gmail.com](mailto:sadbara1987@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18230863>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek mumtoz nasrida epik janrlar tizimining shakllanish jarayonini aks ettiruvchi muhim adabiy manba sifatida tadqiq etiladi. Asarda qissa tarkibida uchraydigan hikoyat, rivoyat, xabar, hikmat, latifa kabi kichik epik janrlarning poetik-funksional xususiyatlari, ularning folklor va yozma adabiyot an‘analari bilan uzviy aloqasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Rabg‘uziy ijodida janrlar sintezi tasodifiy hodisa emas, balki muallifning ongli poetik strategiyasiga asoslangan epik model ekani asoslab beriladi. Maqola natijalari “Qisasi Rabg‘uziy”ni faqat diniy yoki agiografik asar sifatida talqin qilish biryoqlama ekanini ko‘rsatadi hamda uni ko‘pjanrli, didaktik-falsafiy va badiiy-estetik hodisa sifatida baholash zarurligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

**Kalit so‘zlar:** qissa, epik janrlar tizimi, janrlar sintezi, folklor poetikasi, yozma adabiyot, hikoyat, rivoyat, “Qisasi Rabg‘uziy”.

**Аннотация.** В данной статье исследуется произведение Насируддина Рабгузи “Кисас Рабгузи” как важный литературный источник, отражающий процесс формирования системы эпических жанров в узбекской классической прозе. Научно анализируются поэтико-функциональные характеристики малых эпических жанров, таких как рассказ, повествование, весть, мудрость, анекдот, которые встречаются в произведении, и их неразрывная связь с фольклором и письменной литературной традицией. Исследование обосновывает, что синтез жанров в произведении Рабгузи не является случайным явлением, а эпической моделью, основанной на сознательной поэтической стратегии автора. Результаты статьи показывают, что интерпретация “Кисаса Рабгузи” исключительно как религиозного или агиографического произведения является односторонней, и научно доказывают необходимость оценки его как многожанрового, дидактико-философского и художественно-эстетического феномена.

**Ключевые слова:** кисса, система эпических жанров, жанровый синтез, фольклорная поэтика, письменная литература.

**Abstract.** This article studies the work of Nasiruddin Rabguziy “Qisas Rabguziy” as an important literary source reflecting the process of formation of the system of epic genres in Uzbek classical prose. The poetic-functional characteristics of small epic genres such as story, narration, news, wisdom, anecdote, which are found in the work, and their integral connection with folklore and written literary traditions are scientifically analyzed. The research substantiates that the synthesis of genres in Rabguziy’s work is not an accidental phenomenon, but an epic model based on the author’s conscious poetic strategy. The results of the article show that interpreting “Qisas Rabguziy” only as a religious or hagiographic work is one-sided and scientifically prove the need to evaluate it as a multi-genre, didactic-philosophical and artistic-aesthetic phenomenon.

**Keywords:** qissa, epic genre system, genre synthesis, folklore poetics, written literature, hikoyat, rivoyat.

**Kirish.** O‘zbek mumtoz adabiyotida qissa janri uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, diniy, tarixiy, afsonaviy va didaktik mazmunlarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab epik shakl sifatida namoyon bo‘lgan. Qissachilik an‘anasi yozma adabiyot va

xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi uzviy aloqaning mahsuli bo‘lib, bu holat janrning poetik imkoniyatlarini kengaytirgan.

Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari ana shu jarayonning muhim bosqichini ifodalaydi. Asar payg‘ambarlar hayotiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, undagi janrlar rang-barangligi, folklor unsurlarining faol ishtiroki va didaktik maqsadlarning ustuvorligi uni o‘zbek badiiy nasrining yuksak namunasi darajasiga ko‘taradi. Mazkur maqolaning maqsadi “Qisasi Rabg‘uziy”dagi epik janrlar tizimini aniqlash, ularning funksional vazifalari va folklor-poetik tafakkurning yozma adabiyot doirasida transformatsiyaga uchrash mexanizmlarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili.** “Qisasi Rabg‘uziy” asari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bir necha asosiy yo‘nalishda jamlangan. T.Mirzayev va B.Sarimsoqov kitobiy dostonlar nazariyasi doirasida Rabg‘uziy asarini yozma va og‘zaki an‘analar sintezi mahsuli sifatida baholaydi. I.Ostonaqulov qissalarni janr jihatidan tasniflashga uringan bo‘lsa-da, uning tasnifi ayrim jihatlarida bahsli ekani M.Qurbaniyazov tomonidan ko‘rsatib berilgan.

N.Rahmonov Rabg‘uziy asaridagi hikmat va xabar janrlarining falsafiy-didaktik mohiyatini tahlil qilgan. G.Snesarev, V.V.Bartold, Ya.G‘ulomovlarning tarixiy-etnografik tadqiqotlari esa asardagi afsonaviy motivlarning xalq e‘tiqodlari bilan uzviy bog‘liqligini yoritishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda “Qisasi Rabg‘uziy”dagi epik janrlar tizimi yaxlit poetik model sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida amalga oshirildi:

**tarixiy-adabiy metod** – qissachilik an‘anasining shakllanish bosqichlarini aniqlashda;

**janrlararo va struktural tahlil** – qissa tarkibidagi hikoyat, rivoyat, xabar va hikmat janrlarining poetik funksiyalarini belgilashda;

**qiyosiy-folkloriy metod** – og‘zaki va yozma manbalar o‘rtasidagi badiiy aloqalarni aniqlashda;

**funksional yondashuv** – kichik epik janrlarning didaktik va falsafiy vazifalarini ochib berishda.

**Tahlillar va natijalar.** Qissa va kichik epik janrlar o‘rtasidagi munosabat “Qisasi Rabg‘uziy”da qissa markaziy epik janr bo‘lib, hikoyat, rivoyat va xabarlar uning tarkibiy qismlari sifatida xizmat qiladi. Hikoyatlar asosan mo‘jizaviy va axloqiy-ta’limiy mazmun kasb etib, payg‘ambar obrazining ideallashtirilishiga xizmat qiladi. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi har bir bo‘lim mustaqil qissa sifatida shakllangan bo‘lsa-da, ularning barchasi yagona ideologik-didaktik tizimga bo‘ysundirilgan. Masalan, Odam Ato, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad (s.a.v.) haqidagi qissalar mustaqil syujetga ega, biroq ularni birlashtiruvchi asosiy g‘oya **insonni komillikka yetaklashdir**. Qissa janri bu yerda

faqat voqeani bayon qiluvchi shakl emas, balki boshqa kichik janrlarni birlashtiruvchi **epik karkas** vazifasini bajaradi.

Hikoyat janri “Qisasi Rabg‘uziy”da eng faol janrlardan biri hisoblanadi. Muallif ko‘pincha “Hikoyatda andog‘ kelurkim...” iborasi orqali hikoyatga murojaat qiladi. Masalan, “**Uzum hikoyati**” bunga yorqin misoldir. Ushbu hikoyatda Shayton uzum niholini parvarishlash jarayonida tulki, sher, maymun va cho‘chqa qonidan foydalanadi. Natijada uzumdan tayyorlangan ichimlik odamni bosqichma-bosqich hayvoniy sifatlar tomon yetaklaydi.

**Rivoyat janri va tarixiy-afsonaviy tafakkur.** Rivoyatlar ko‘pincha muayyan voqeaga **xalqona izoh** berish vazifasini bajaradi. Masalan, Nuh payg‘ambar va to‘fon voqealari bilan bog‘liq rivoyatlar diniy manbalar bilan bir qatorda xalq tasavvurlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Rabg‘uziy rivoyatlarni keltirar ekan, ularni mutlaq haqiqat sifatida emas, balki **ijtimoiy xotira mahsuli** sifatida talqin qiladi. Bu holat rivoyat janrining badiiy-falsafiy ahamiyatini oshiradi. Rivoyatlar ko‘pincha tarixiy yoki diniy voqealarga izoh berish vazifasini bajaradi.

Xabar janri Rabg‘uziy asarida alohida o‘rin tutadi. “Xabarda andog‘ kelur” iborasi bilan boshlanuvchi parchalarda muallif ma‘lum manbalarga tayanganini bildiradi. **Avj ibn Unuq** haqidagi xabar bunga misol bo‘la oladi. Unda Avjning g‘oyat ulkan bo‘yi, kuch-qudrati tasvirlanadi, ammo oxir-oqibat u ilohiy adolat oldida ojiz qoladi. Bu xabar:

1. kibr va manmanlikning oqibatini ko‘rsatadi;
2. tarixiy-afsonaviy obrazni axloqiy xulosaga olib keladi.

**Xabar janri** bu yerda ishonchlilik va dalillash mexanizmi vazifasini bajaradi. Shuningdek, xabar janri qissadagi voqealarning ishonchliligini ta‘minlovchi manbashunoslik unsuri sifatida namoyon bo‘ladi. Avj ibn Unuq haqidagi xabarlar insoniyatning halokatga eltuvchi yo‘li sifatida kibr va molparastlikni fosh etishga xizmat qiladi.

Rabg‘uziy qissalarda ko‘pincha **hikmatli** jumlar orqali voqeaga yakun yasaydi. Masalan: “Har kim dunyoga aldanib, oxiratni unutsa, oxiri nadomat bo‘lur”. Bu kabi hikmatlar: syujetni umumlashtiradi, falsafiy xulosa beradi, o‘quvchini tafakkurga chorlaydi. Jumladan, hikmat janri qissaning **mafkuraviy yadrosi** sifatida xizmat qiladi.

**Latifa** unsurlari va yumoristik tafakkur “Qisasi Rabg‘uziy”da kam bo‘lsa-da, latifa unsurlari uchraydi. Ular asosan Shayton yoki nodon insonlar bilan bog‘liq sahnalarda namoyon bo‘ladi. Yumor orqali muallif:

illatlarni kulgi vositasida fosh etadi;  
didaktik ta‘sirni kuchaytiradi.

Bu holat Rabg‘uziy ijodida epik tafakkurning rang-barangligini ko‘rsatadi.

**Folklor poetikasining transformatsiyasi.** Rabg‘uziy folklor motivlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmaydi, balki ularni yozma adabiyot talablari asosida qayta ishlaydi.

“Hikoyatda andog‘ kelur” va “taqi aymishlar” kabi qoliplar og‘zaki va yozma manbalarning uyg‘unligini ko‘rsatadi. Bu holat folklor poetikasining transformatsiyaga uchragan shakli sifatida baholanadi.

**Xulosa.** Xulosa shundan iboratki “Qisasi Rabg‘uziy” o‘zbek mumtoz adabiyotida qissa janrining shakllanish va takomillashuv bosqichini belgilovchi muhim epik yodgorlikdir. Asardagi kichik epik janrlar badiiy yaxlitlikni ta‘minlab, mazmuni teranlashtiradi. Rabg‘uziy folklor va yozma adabiyot an‘analarini uyg‘unlashtirib, o‘zbek adabiy tafakkurida yangi ko‘pjarli epik model yaratgan. Rabg‘uziy ijodida folklor va yozma adabiyot sintezi **ongli poetik strategiya** sifatida asarning didaktik mohiyati butun epik tizimga xos xususiyat ekani ilmiy jihatdan isbotlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: 1981.
2. Рабғузий Н.Б. Қисаси Рабғузий. I–II ж. – Тошкент: Ёзувчи, 1990–1991.
3. Остонақулов И. Қисас ар-Рабғузий – адабий асар. – Тошкент: 1993.
4. Қурбаниязов М. XIV аср ўзбек адабиётида ҳикоят жанри тараққиёти. – Қарши: 2019.
5. Раҳмонов Н.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Sanostandart, 2017.
6. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари. – Урганч: 2018.
7. Bartold V.V. Works. Vol. II. – Moscow: 1963.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934